

YANGI O'ZBEKISTONDA XOTIN – QIZLAR TA'LIMIGA

YANGICHA NIGOH

F.I.SH : Normatjonova Odinaxon

O'qish joyi : Toshkent davlat yuridik universiteti

Anotatsiya:

Urushlar natijasida bilim olishdan mahrum bo'lganlar qatorida xotin-qizlar. Ayollar ta'limiga yaratilgan imkoniyatlarning dunyo mamlakatlari va O'zbekistondagi analogiyasi.

Kalit so'z: urush oqibatlarini , xotin-qizlar ta'limi, normativ-huquqiy hujjatlar.

So'nggi statistik ma'lumotlarga ko'ra , bugun har kuni dunyoning turli burchaklarida xotin-qizlar qashshoqlik , madaniy me'yorlar va dasturlar , yomon tashkil etilgan infratuzilma , zo'ravonlik va boshqa ko'plab rad etib bo'lmas sabablar tufayli ta'lim olishda muayyan to'siqlarga duch kelmoqda.

Sir emaski oqibati ayanchli yakun bilan tugagan jahon urushlaridan keyin dunyo davlatlari bor kuchini o'zlarini har sohada rivojtitirishga bel bog'ladilar va ular bu rivojlanishga ta'lim , fan , madaniyat sohalarini qo'llab-quvvatlamay turib erishib bo'lmasligini anglagan holda birinchi navbatda juda katta investitsiyalarni mana shu sohaga qaratadilar. Natijada "Uchinchi dunyo mamalakatlari" nomini olgan fan-taraqqiyot , zamonaviy texnologiyalar borasida muvaffaqiyatning cho'qqisiga erishgan davlatlar paydo bo'ldi.

Bundan tashqari , xalqaro doirada qabul qilingan turli konvensiyalar , shartnomalar va deklaratsiyalar bu dunyoda yashash har bir insonning uzviy huquqi ekanligi va inson shani qadr-qimmati kabi tushunchalarni yoqlash bilan birga ta'lim sohasida ham bir qancha mustahkam qarorlar o'rnatdi. 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya" , 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" , 1979-yil qabul qilingan "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakillariga barham berish to'g'risidagi konvensiya" larning barchasida xotin-qizlarning ta'lim olish borasida hech qanday to'siq yoki cheklovlar qo'yilmagan. Ya'ni "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" ning 1-moddasiga ko'ra , barcha odamlar erkin , qadr-qimmati va huquqlarida teng bo'lib tug'ildilar.



26-moddada esa , har bir insonning ta'lim olish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yilgan. Bu shuni anglatadiki ta'lim olishda xotin-qizlar ham teng huquq va imkoniyatlarga ega. Yuqoridagi konvensiyalarning barchasi shu mazmunda xotin-qizlar ta'lim olish huquqining mavjudligi va butun dunyoda ta'minlanishi hamda himoya qilinishini anglatadi.

1946-yil tashkil etilgan UNISEF xalqaro huquq doirasida BMT ning bolalar huquqlari bo'yicha vakilining asosiy vazifalaridan biri jahon urushlaridan keyin jabrlangan bolalar va ularning oilalari hayotini yaxshilash , eng kam ta'minlangan qatlamlarga alohida e'tibor berish bilan birga dunyoda bolalar savodsizligiga qarshi kurashish hisoblanadi.

Qabul qilingan talaygina xalqaro shartnomalar , tashkil etilgan xalqaro tashkilotlar va ular uchun bajarilishi shart qilib berilgan vazifalarga qaramasdan UNESCO beradigan statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda dunyoda 129 million qizlar maktabda ta'lim olmaydi , ulardan 32 million nafar (qariyb butun O'zbekiston Respublikasi aholisi) boshlang'ich maktab , 97 million nafari esa o'rta maktab yoshida.¹ Bu ayanchli hol hisoblanadi.

Shu qatorda analogiya sifatida O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatidagi o'rni tobora ko'tarilib borayotgani va buning asosiy sabablaridan biri mamalakatimizda qabul qilingan xotin-qizlar va ularning ta'limini yaxshilashga qaratilgan qator normativ-hujjatlar va ularni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi ya'ni o'zbek xotin-qizlariga bilim egallashlari va jahon sahnalarida bu imkoniyatlarni namoyish qilishlari uchun barcha shart-sharoitlar ta'minlab berilganligi davlatimizni jahon standartlariga moslashayotganligini anglatadi. Bu ayniqsa so'nggi yillarda ko'p bora o'z samarasini berayotgan "Yangi O'zbekiston" dasturi bilan chambarchas bog'liq.

Ushbu dastur asosida qabul qilingan huquqiy hujjatlar va ularning amaliyotdagi tajribasi sifatida quyidagilarni misol qilib keltira olaman:

1) 2022-yil 19-avustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Oliy , o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida xotin-qizlarning to'lov-kontrakt asosida ta'lim olishi uchun ta'lim kreditlari ajratishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror² kucga kirdi. Ushbu qaror asosan mamalakatimizdagi xotin-qizlar orasidagi ishsizlik darajasini keskin kamaytirish maqsadida ularni

¹ <https://www.worldbank.org/en/topic/girlseducation>

² <https://lex.uz/docs/-6163025>



davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitishga keng jalb qilishni dolzrb bo'lgan masala deb hisobladi. Shuningdek, qo'shma ta'lim dasturlari bo'yicha bakalavriat, magistraturaning kunduzgi, sirtqi va kechki ta'lim shaklida to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilingan yoki tavsiya etilgan, o'qishini ko'chirgan;

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdagi 447-son qaroriga3 muvofiq davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida to'lov-kontrakt asosida o'qiyotgan talaba xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari qoplash uchun Davlat budjetidan ta'lim kreditlari ajratiladi. Ta'lim kreditining asosiy qarzini kredit oluvchi tomonidan ta'lim tashkilotida ta'limning tegishli turi bo'yicha rasmiy o'qish muddati tugagandan so'ng yettinchi oydan boshlab 7 yil davomida qaytarib beriladi.

2) 2022-yil 15-iyunda Vazirlar Mahkamasi tomonidan ijroga qaratilgan "Davlat oliy ta'lim muassasalari magistratura bosqichida ta'lim olayotgan xotin-qizlarning to'lov-kontrakt mablag'larini to'lab berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida4 asosiy e'tibor mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, jamiyatda ularning rolini mustahkamlash hamda gender tengligini ta'minlash borasida izchil choralar ko'rish shu bilan birga, O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida xotin-qizlarning ta'lim olishlari uchun keng shart-sharoitlarni yaratish hamda ularni ilm-fanga faol jalb etishga qaratildi.

Muhtaram Prezidentimizning "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoniga muvofiq ushbu qaror belgilaydiki:

davlat oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Dalat boshqaruvi akademiyasi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi hamda Bank-moliya akademiyasining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari shartsiz qoplanadi.

3) 2022-yil 9-maydan kuchga kirgan Vazirlar Mhkamasining "Mutaxassisligi bo'yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo'lgan xotin-qizlarni davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibini tasdiqlash haqida"gi qaroridagi5 asosiy masala O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari

³ <https://lex.uz/ru/docs/6156799>

⁴ <https://lex.uz/docs/-6156799>

⁵ <https://lex.uz/docs/-6056269>



to'g'risida"gi farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Quyidagilarni nazarda tutuvchi Mutaxassisligi bo'yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo'lgan xotin-qizlarni davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibiga muvofiq :

davlat organlari va tashkilotlarda mutaxassisligi bo'yicha kamida besh yil mehnat staji mavjud, biroq oliy ma'lumotga ega bo'lmagan xotin-qizlarni (keyingi o'rinlarda — xotin-qizlar) davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga bazaviy to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish bo'yicha alohida qabul parametrlarini belgilash tartibi;

xotin-qizlarga Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tomonidan bir marta 3 yil muddat davomida amal qiladigan tavsiyanoma berish;

tavsiyanomaga ega bo'lgan xotin-qizlarni oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun tanlovlar natijasiga ko'ra alohida qabul parametrlari doirasida o'qishga qabul qilish tartibi belgilansin.

Xulosa sifatida shuni ayta olamanki , yuqorida xotin-qizlar ta'limi uchun misol tariqasida keltirib o'tilgan keng imkoniyatlar 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi konstitutsiyamizning 1-moddasida keltirilganidek , boshqaruvning Respublika shakliga ega bo'lgan suveren , demokratik , huquqiy , ijtimoiy va dunyoviy davlatimizda mavjud bo'lgan yuzlab normativ-huquqiy hujjatlarning ayrim normalari edi xalos.Bundan ko'rinadi , davlatimiz o'z xalqi , fuqarolari ayniqsa xotin-qizlarning ta'limiga befarq emas , ularning bilimli , ma'rifat , manaviyat egasi bo'lish uchun imkoniyat va imtiyozlar eshigini ochishda rivojlagan davlatlarning davomchisidir.